2026-yil
8-son

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK: 376.3:373.5

Niyazova Muqaddas Kurbandurdiyevna,
Buxoro shahar 30-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida inklyuziv madaniyatni shakllantirishning mazmun-mohiyati, pedagogik va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Inklyuziv madaniyat barcha o‘quvchilarga, ularning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ta’lim ehtiyojlaridan qat’i nazar, teng imkoniyatlar yaratishga asoslanadi. Maqolada inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va hamkorlik, ota-onalar bilan samarali muloqot hamda maktab jamoasining roli tahlil qilinadi. Shuningdek, inklyuziv madaniyatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va amaliy mexanizmlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, inklyuziv madaniyat, umumta’lim maktabi, teng imkoniyat, alohida ta’lim ehtiyojlari, bag‘rikenglik, hamkorlik, ijtimoiy moslashuv, pedagogik yondashuv.

ФОРМИРОВАНИЕ ИНКЛЮЗИВНОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. В статье раскрываются содержание, сущность, педагогическое и социальное значение формирования инклюзивной культуры в общеобразовательных школах. Инклюзивная культура основывается на создании равных возможностей для всех обучающихся независимо от их индивидуальных особенностей, способностей и образовательных потребностей. В статье анализируются роль профессиональной компетентности педагогов, развитие взаимного уважения и сотрудничества между обучающимися, эффективное взаимодействие с родителями, а также значение школьного сообщества в формировании инклюзивной образовательной среды. Кроме того, определены основные направления и практические механизмы развития инклюзивной культуры в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: инклюзивное образование, инклюзивная культура, общеобразовательная школа, равные возможности, особые образовательные потребности, толерантность, сотрудничество, социальная адаптация, педагогический подход.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

DEVELOPING AN INCLUSIVE CULTURE IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Abstract. This article discusses the essence, pedagogical and social significance of developing an inclusive culture in general education schools. Inclusive culture is based on providing equal educational opportunities to all students regardless of their individual characteristics, abilities and educational needs. The article analyzes the role of teachers' professional competence, mutual respect and cooperation among students, effective communication with parents, and the school community in creating an inclusive educational environment. The main directions and practical mechanisms for developing an inclusive culture in general education schools are also presented.

Keywords: inclusive education, inclusive culture, general education school, equal opportunities, special educational needs, tolerance, cooperation, social adaptation, pedagogical approach.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimining oldida turgan muhim vazifalardan biri — har bir bolaning, uning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlaridan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashdir. Zamonaviy jamiyatda turli qobiliyat, ehtiyoj va imkoniyatlarga ega bo'lgan bolalarning birgalikda ta'lim olishi ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan, insonparvar va individual yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni rivojlantirish hamda inklyuziv madaniyatni shakllantirish bugungi kunning dolzarb pedagogik va ijtimoiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limning asosiy mazmuni o'quvchilar o'rtasidagi individual farqlarni ta'lim jarayoniga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida emas, balki ta'lim muhitining tabiiy va muhim xususiyati sifatida qabul qilishdan iborat. Bunday yondashuv har bir o'quvchining ta'lim olish, maktab hayotida faol ishtirok etish, tengdoshlari bilan muloqot qilish va o'z qobiliyatlarini to'laqonli namoyon etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni jamiyatdan ajratmasdan, ularni tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishiga sharoit yaratish inklyuziv ta'limning muhim tamoyillaridan biridir.

Shu bilan birga, inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish faqatgina moddiy-texnik sharoitlarni yaratish yoki alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarni umumiy sinflarga jalb etish bilangina cheklanmaydi. Mazkur jarayon maktab jamoasining barcha a'zolari — rahbariyat, pedagoglar, o'quvchilar, ota-onalar va boshqa mutaxassislarning hamkorligini talab etadi. Bunda o'qituvchilarning inklyuziv pedagogik kompetensiyasi, individual yondashuvdan foydalanish ko'nikmalari, sinfdagi psixologik muhit va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv madaniyat esa maktabda barcha o‘quvchilarni qadrlash, ularning huquq va imkoniyatlarini hurmat qilish, o‘zaro yordam, hamkorlik, bag‘rikenglik va tenglik kabi qadriyatlarni qaror toptirishni nazarda tutadi. Bunday madaniyat shakllangan ta’lim muhitida o‘quvchilarning individual xususiyatlari hurmat qilinadi, kamsitish va chetlatishning oldi olinadi hamda har bir bola o‘zini maktab jamoasining teng huquqli a’zosi sifatida his etadi. Shu sababli inklyuziv madaniyatni shakllantirish nafaqat alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning, balki barcha o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro viloyatida 152 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida inklyuziv sinflar tashkil etilgan bo‘lib, ularda 353 nafar o‘quvchi sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olmoqda. Shuningdek, 688 nafar imkoniyati cheklangan o‘quvchiga uyda yakka tartibda ta’lim berilmoqda. Mazkur ko‘rsatkichlar hududda inklyuziv ta’limni rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, inklyuziv ta’limning qamrovini kengaytirish bilan bir qatorda, maktablarda barcha o‘quvchilar uchun qulay, xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish, ya’ni inklyuziv madaniyatni shakllantirishga ham tizimli yondashish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan, umumta’lim maktablarida inklyuziv madaniyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Inklyuziv madaniyatning rivojlanishi maktab muhitida tenglik va hamjihatlikni mustahkamlash, o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik muhitini shakllantirish hamda har bir bolaning o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida inklyuziv madaniyatni shakllantirishning pedagogik jihatlari, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati hamda samarali tashkil etish shart-sharoitlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida inklyuziv ta’lim va inklyuziv muhitning mazmun-mohiyatini ochib berish, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay ta’lim sharoitlarini yaratish masalalarini o‘rganish, shuningdek, pedagog, psixolog, o‘quvchi va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikning inklyuziv muhitni shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqotning metodologik asosini pedagogik hodisalarni tahlil qilish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, kuzatish hamda amaliy pedagogik tajribalarni o‘rganish metodlari tashkil etdi. Mazkur metodlar orqali inklyuziv ta’lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik va psixologik holatlar, o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki, tengdoshlari bilan munosabatlari hamda pedagogik qo‘llab-quvvatlashning samaradorligi o‘rganildi. Shuningdek, mavjud pedagogik tajribalarni tahlil qilish asosida inklyuziv madaniyatni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar aniqlandi.

Tadqiqot davomida umumta'lim maktablarida inklyuziv muhitni shakllantirishga xizmat qiluvchi individual va differensial yondashuv, hamkorlikka asoslangan ta'lim, o‘quvchilarning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olish, interfaol metodlardan foydalanish hamda psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari ham tahlil qilindi. Bunda o‘quvchining nafaqat akademik rivojlanishi, balki uning ijtimoiy moslashuvi, muloqot ko‘nikmalari, mustaqilligi va jamoaga integratsiyalashuvi ham muhim mezon sifatida qaraldi.

Amaliy jihatdan Buxoro shahridagi 30-umumiy o‘rta ta'lim maktabida inklyuziv ta'lim olayotgan o‘quvchi bilan olib borilayotgan individual va jamoaviy interfaol mashg‘ulotlar tajribasi misol sifatida ko‘rib chiqildi. Ushbu tajriba doirasida o‘quvchining ta'lim jarayonidagi ishtiroki, tengdoshlari bilan o‘zaro munosabati, pedagog tomonidan qo‘llanilayotgan individual yondashuv va interfaol metodlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, o‘quvchini qo‘llab-quvvatlashda o‘qituvchi, maktab psixologi va tengdoshlar hamkorligining o‘rni ham ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida inklyuziv madaniyatni shakllantirish faqatgina alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan cheklanmasligi, balki butun maktab jamoasida o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik, hamkorlik va tenglik tamoyillarini qaror toptirish bilan chambarchas bog‘liqligi asoslandi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot mavzusini pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatdan kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

Inklyuziv madaniyat tushunchasi va uning ahamiyati

Inklyuziv madaniyat — ta'lim muassasasida barcha o‘quvchilarni qadrlash, ularning huquq va imkoniyatlarini hurmat qilish hamda ta'lim jarayonida teng ishtirokini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik muhitdir.

Maktabda inklyuziv madaniyat shakllangan bo‘lsa, o‘quvchilar o‘zlarini jamoaning muhim va to‘laqonli a'zosi sifatida his qiladilar. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy faolligini rivojlantiradi va ta'lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Inklyuziv madaniyatning muhim tamoyillaridan biri kamsitishga yo‘l qo‘ymaslikdir. O‘quvchining jismoniy yoki intellektual imkoniyatlari, o‘zlashtirish darajasi yoki boshqa individual xususiyatlari uning teng huquqli ta'lim olishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak.

Shu bois inklyuziv madaniyatni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va ta'lim jarayonida zarur pedagogik ko‘makni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumta'lim maktablarida inklyuziv muhitni shakllantirish

Inklyuziv muhitni shakllantirishda, avvalo, pedagoglarning munosabati muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olishi va ta'lim jarayonini imkon qadar moslashtirishi lozim. Bunda differensial va

individual yondashuv, interfaol metodlar, guruhli mashg‘ulotlar hamda hamkorlikka asoslangan topshiriqlardan foydalanish samarali natija beradi.

Sinf jamoasida o‘quvchilar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarni shakllantirish ham muhimdir. Turli guruhlarda ishlash, o‘zaro yordam va hamkorlikka asoslangan mashg‘ulotlar o‘quvchilarda bir-birini tushunish va hurmat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Maktab psixologi ham inklyuziv muhitni shakllantirish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Psixolog o‘quvchilarning ijtimoiy va psixologik moslashuvini qo‘llab-quvvatlashi, sinfdagi nizoli vaziyatlarning oldini olishi hamda o‘quvchilarda ijobiy kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga ko‘maklashishi mumkin.

Oila va maktab hamkorligining ahamiyati

Inklyuziv ta’lim samaradorligini ta’minlashda ota-onalar bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Oila va maktab o‘rtasidagi muntazam va ochiq muloqot bolaning ta’lim jarayonidagi ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Ota-onalar farzandining qobiliyatlari, qiziqishlari va duch kelayotgan qiyinchiliklari haqida pedagoglarga ma’lumot berishi, pedagoglar esa bolaning ta’limdagi rivojlanishi haqida ota-onalarni muntazam xabardor qilib borishi lozim. Bunday hamkorlik bolaning individual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, ota-onalar o‘rtasida inklyuziv ta’limning mazmuni va ahamiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish zarur. Chunki inklyuziv madaniyat nafaqat maktabda, balki oilada va jamiyatda ham shakllanadi.

Inklyuziv madaniyatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Umumta’lim maktablarida inklyuziv madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, avvalo, har bir o‘quvchining ta’lim olish, maktab hayotida faol ishtirok etish hamda o‘z qobiliyatlarini namoyon etishi uchun teng va qulay sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va hamjihatlikni qaror toptirish, turli xil individual xususiyat va ehtiyojlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kamsitish, chetlatish va bulling holatlarining oldini olish, maktabda har bir o‘quvchi o‘zini xavfsiz va qadrlangan his qiladigan ijobiy psixologik muhitni ta’minlash zarur. Mazkur jarayonda pedagoglarning inklyuziv ta’lim bo‘yicha bilim va kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarni individual yondashuv asosida qo‘llab-quvvatlash, ularning ta’lim jarayoniga to‘laqonli jalb etilishini ta’minlash alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, ota-onalar, pedagoglar va maktab ma’muriyati o‘rtasidagi samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, maktab infratuzilmasini barcha o‘quvchilar uchun imkon qadar qulay va moslashtirilgan holga keltirish hamda o‘quvchilarning maktab hayotidagi ijtimoiy va jamoaviy faoliyatlarda faol ishtirok etishiga sharoit yaratish inklyuziv madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridir. Ushbu yo‘nalishlarning izchil va tizimli amalga oshirilishi maktab jamoasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va o‘zaro hamkorligini kuchaytirish, shuningdek, ta’lim jarayonida teng imkoniyatlarni ta’minlashga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'limda pedagogning kasbiy kompetensiyasi

Inklyuziv ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. O'qituvchi nafaqat o'z fanini yaxshi bilishi, balki turli ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashning pedagogik va psixologik usullarini ham egallagan bo'lishi kerak.

Bunda o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash, ularning qobiliyat va imkoniyatlarini hisobga olish hamda ta'lim mazmunini moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagog sinfdagi barcha o'quvchilarga bir xil hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'lishi bilan birga, ularning individual imkoniyatlariga mos yordam ko'rsatishi zarur. Ayrim o'quvchilarga topshiriqni bajarish uchun qo'shimcha vaqt, ko'rgazmali material yoki individual tushuntirish talab qilinishi mumkin. Bunday yondashuv o'quvchining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirib borish, seminar va treninglarda ishtirok etishini ta'minlash inklyuziv ta'lim sifatini yaxshilashning muhim shartlaridan biridir.

O'quvchilarda bag'rikenglik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish

Inklyuziv madaniyatni shakllantirishda o'quvchilarning o'zaro munosabatlari alohida ahamiyatga ega. Bolalarda kichik yoshdan boshlab turli xil insonlarni hurmat qilish, ularning farqlarini to'g'ri qabul qilish va zarur hollarda yordam berish ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Buning uchun dars jarayonida hamkorlikka asoslangan topshiriqlar, rolli o'yinlar, munozaralar va tarbiyaviy tadbirlardan foydalanish mumkin. Mazkur usullar o'quvchilarda empatiya, muloqot, o'zaro yordam va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ayniqsa, bulling va kamsitishning oldini olish inklyuziv madaniyatning muhim yo'nalishlaridan biridir. Maktabda har bir o'quvchi o'zini xavfsiz his qilishi, fikrini erkin bildira olishi va tengdoshlari tomonidan hurmat qilinishiga erishish zarur.

Amaliy jihatdan Buxoro shahridagi 30-umumiy o'rta ta'lim maktabida inklyuziv ta'lim olayotgan Uchqunov Umidjon bilan olib borilayotgan ishlarni misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur o'quvchi bilan boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maxsus pedagog tomonidan o'quv yili davomida individual hamda sinf jamoasi bilan birgalikda turli interfaol mashg'ulotlar tashkil etilmoqda.

Inklyuziv madaniyatning ijtimoiy ahamiyati

Inklyuziv madaniyatning rivojlanishi nafaqat ta'lim tizimi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'zaro hurmat, tenglik, hamjihatlik va qo'llab-quvvatlash muhitida tarbiyalangan yoshlar kelajakda jamiyatning faol, mas'uliyatli va bag'rikeng a'zolari sifatida shakllanadi. Inklyuziv ta'lim jarayonida bolalarda inson huquqlariga hurmat, ijtimoiy adolat, o'zaro yordam, hamkorlik va turli qarashlarga nisbatan bag'rikeng munosabat kabi muhim qadriyatlar rivojlanadi. Bu esa turli ijtimoiy

guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv madaniyatni shakllantirishni faqat ta’lim muassasasining vazifasi sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida baholash lozim. Buxoro shahridagi 30-umumiy ta’lim maktabida tashkil etilgan “Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning qo‘l mehnati mahsulotlari auksion savdosi” mazkur yondashuvning amaliy ifodalaridan biridir. Tadbirda uyda yakka tartibda ta’lim olayotgan hamda inklyuziv ta’limga jalb etilgan iqtidorli o‘quvchilarning ijodiy ishlari namoyish etilib, ularning qobiliyat va imkoniyatlarini keng jamoatchilikka ko‘rsatish uchun sharoit yaratildi. Bunday tashabbuslar o‘quvchilarning o‘z iste’dodini namoyon etishi, tengdoshlari va jamiyat bilan faol muloqotga kirishishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashi hamda jamiyat hayotida o‘z o‘rnini his etishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliy tavsiyalar. Umumta’lim maktablarida inklyuziv madaniyatni yanada rivojlantirish uchun pedagoglarning inklyuziv ta’lim bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini muntazam oshirib borish, ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar, differensial va individual ta’lim metodlari bilan tanishtirish, shuningdek, bu yo‘nalishda seminar, trening va amaliy mashg‘ulotlarni tizimli ravishda tashkil etish muhimdir. Pedagog nafaqat ta’lim beruvchi, balki sinfdagi sog‘lom psixologik muhitni shakllantiruvchi va barcha o‘quvchilar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim.

O‘quvchilar o‘rtasida bag‘rikenglik, do‘stona munosabat, hamkorlik va o‘zaro hurmatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni muntazam tashkil etish ham inklyuziv madaniyatning muhim shartlaridan biridir. Bunda turli vaziyatli mashqlar, guruhli topshiriqlar, hamkorlikdagi loyihalar, suhbatlar va ijodiy tadbirlardan foydalanish o‘quvchilarning bir-birini yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Ayniqsa, o‘ziga xos ehtiyoj va imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni jamoaviy faoliyatga jalb etish ularning ijtimoiy faolligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Maktab psixologi faoliyatini inklyuziv muhitni rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarning psixologik holatini muntazam o‘rganish va zarur hollarda individual qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ota-onalar bilan muntazam maslahat va uchrashuvlar tashkil etish, ularni farzandlarining ta’lim va tarbiya jarayoniga faol jalb qilish, maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash lozim. Ota-onalarning inklyuziv ta’limning mazmuni va ahamiyati haqidagi xabardorligini oshirish maktabda yagona tarbiyaviy muhitni shakllantirishga yordam beradi.

Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarga individual yondashuvni kuchaytirish, ularning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’limiy hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish zarur. Bunda o‘quvchining faqat akademik natijalari emas, balki uning ijtimoiy, kommunikativ va ijodiy rivojlanishiga ham e’tibor qaratilishi kerak. Bulling, kamsitish, masxara qilish va ijtimoiy chetlatish

kabi holatlarning oldini olish bo‘yicha profilaktik ishlarni tizimli ravishda olib borish, o‘quvchilarga bunday vaziyatlarda qanday munosabat bildirish kerakligini tushuntirish ham muhim vazifalardan biridir.

Barcha o‘quvchilarning maktab tadbirlari, to‘garaklar, sport musobaqalari, ijodiy loyihalar va jamoaviy faoliyatlarda teng ishtirokini ta’minlash orqali ularning maktab hayotiga daxldorlik hissini kuchaytirish mumkin. Ta’lim jarayonida hamkorlikka asoslangan interfaol metodlardan foydalanish, kichik guruhlarda ishlash, juftlikdagi topshiriqlar va loyiha faoliyatini kengaytirish o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini rivojlantiradi. Shuningdek, o‘quvchilarning qobiliyat va iqtidorini namoyon etishi uchun ko‘rgazmalar, ijodiy tanlovlar, mahorat darslari, ko‘rgazmali tadbirlar va turli loyihalarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Inklyuziv madaniyatni rivojlantirishda maktab infratuzilmasining qulayligi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. O‘quvchilarning jismoniy imkoniyatlari va individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim xonalari, umumiy foydalanish joylari hamda o‘quv vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bunday yondashuv barcha o‘quvchilarning maktab muhitida o‘zini erkin va xavfsiz his qilishiga xizmat qiladi.

Mazkur chora-tadbirlarning izchil va tizimli amalga oshirilishi maktabda ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va o‘zaro hamkorligini kuchaytirish, ta’lim jarayonida teng imkoniyatlarni ta’minlash hamda har bir o‘quvchining shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

Xulosa. Umumta’lim maktablarida inklyuziv madaniyatni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri bo‘lib, uning mazmuni barcha o‘quvchilar uchun teng, xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish bilan chambarchas bog‘liq. Inklyuziv madaniyatning asosini har bir o‘quvchining shaxsini qadrlash, uning huquq va qadr-qimmatini hurmat qilish, ta’lim olish uchun teng imkoniyat yaratish hamda individual ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olish tashkil etadi. Bunday yondashuv o‘quvchini faqat ta’lim oluvchi sifatida emas, balki maktab jamoasining to‘laqonli a’zosi sifatida ko‘rishni nazarda tutadi.

Inklyuziv muhitni shakllantirish biror bir pedagog yoki mutaxassisning alohida vazifasi bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda maktab rahbariyati, fan o‘qituvchilari, sinf rahbarlari, psixologlar, ota-onalar va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir ishtirokchining o‘z vazifasini mas’uliyat bilan bajarishi, o‘quvchilarning ehtiyojlarini o‘z vaqtida aniqlashi va ularga zarur ko‘mak ko‘rsatishi inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktab jamoasida bag‘rikenglik, hamkorlik, o‘zaro yordam va hurmat qadriyatlarining qaror topishi inklyuziv madaniyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi.

Inklyuziv madaniyatni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning individual farqlarini tabiiy holat sifatida qabul qilish, ularning qobiliyat va imkoniyatlariga ishonch bildirish hamda ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoit

yaratish alohida ahamiyatga ega. Bunday muhitda o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifodalash, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, bir-birining qarash va imkoniyatlarini hurmat qilishni o‘rganadi. Natijada nafaqat ta’lim sifati, balki o‘quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi uchun ham qulay sharoit yuzaga keladi.

Inklyuziv madaniyatning ijtimoiy ahamiyati shundaki, maktabda shakllangan ijobiy munosabatlar o‘quvchilarning keyingi hayotidagi qarashlari va xulq-atvoriga ham ta’sir ko‘rsatadi. Tenglik, adolat, hamjihatlik va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalangan yoshlar kelajakda jamiyatda turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqot qila oladigan, boshqalarning huquq va manfaatlarini hurmat qiladigan hamda ijtimoiy mas’uliyatni his etadigan shaxslar sifatida shakllanadi. Shu jihatdan, maktabda inklyuziv madaniyatni rivojlantirish uzoq muddatli ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim pedagogik va tarbiyaviy omil hisoblanadi.

Shuningdek, inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy va amaliy qobiliyatlarini namoyon etishiga imkon beradigan turli tadbirlarni tashkil etish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega yoki uyda yakka tartibda ta’lim olayotgan o‘quvchilarni maktab hayotiga imkon qadar faol jalb etish ularning jamiyat bilan aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli inklyuzivlikni faqat ta’lim olish imkoniyati bilan cheklab qo‘ymasdan, o‘quvchining ijtimoiy, madaniy va ijodiy hayotdagi ishtirokini ham qamrab oladigan keng tushuncha sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, inklyuziv madaniyatni rivojlantirish orqali har bir bolaning ta’lim olish, o‘z qobiliyatlarini namoyon etish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash, maktab muhitida sog‘lom munosabatlarni shakllantirish va ta’lim sifatini oshirish bilan bir qatorda, kelajakda insonparvar, adolatli, hamjihat va bag‘rikeng jamiyatni barpo etishga ham zamin yaratadi. Shunday ekan, inklyuziv madaniyatni shakllantirish barcha ta’lim ishtirokchilarining doimiy e’tibori va hamkorligini talab qiladigan uzluksiz jarayon sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. PQ-4860-son, 2020-yil 13-oktabr.

3. UNESCO. A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education. Paris: UNESCO, 2017.

4. UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. Paris: UNESCO, 1994.

5. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education, 2011.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694